

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Qoraqalpoq populyatsiyasi aholisida asoratlangan pankreatitlarni yangi laboratorik (kengaytirilgan immunogramma) tashxislash va davolashning miniinvaziv uslublarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Qoraqalpoq populyatsiyasida o'tkir pankreatitning rivojlanish fazalarini aniqlash uchun kengaytirilgan immunogramma amalga oshiriladi: umumiy T-limfotsitlar, T-xelperlar, T-sitotoksik limfotsitlar, B-limfotsitlar, faollashgan tabiiy killerlar, dubl-musbat va dubl-manfiy limfotsitlar aniqlanadi hamda immunoregulyator indeksi, shuningdek, yallig'lanish mediatorlari bo'lgan C-reaktiv oqsil, interleykin-6 va prokalsitonin aniqlanadi. - tekshiruvlar va yangi diagnostik apparatlarning tashxis qo'yish parametrlari bo'yicha algoritm ishlab chiqiladi. - nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida o'tkir pankreatit bilan kasallangan bemorlarni konservativ davolashning yangi algoritmi yaratiladi. - asoratlangan o'tkir pankreatit bilan kasallangan bemorlarga ochiq operatsiya (laparotomiya) bajarishning zamonaviy uslubi, asoratlarning oldini olish bo'yicha maxsus uslubiy qo'llanmalar shifokorlarga taqdim etiladi. - o'tkir pankreatitni kam invaziv (laparoskopik), yuqori texnologiyali operatsiyaning yangi turi (o't yo'llarini va qorin bo'shlig'ini drenajlash) ishlab chiqiladi; Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Sog'liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.